

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

*Tarix fakulteti "Milliy g'oya, Ma'naviyat asoslari va huquq
ta'limi" yo'nalishi 404-guruh talabasi
Umarov Ilhomning*

REFERAT

*Mavzu: Ma'naviy qashshoqlashtirish siyosati va
undan ko'zlangan maqsadlar*



Ilmiy rahbar:
Kafedra mudiri:

U. Musayev.
M. Sobirova.

TOSHKENT-2014

***Mavzu: MA'NAVIY QASHSHOQLASHTIRISH SIYOSATI VA
UNDAN KO'ZLANGAN MAQSADLAR***

REJA:

I. Kirish

II. Asosiyqism

- 1) Mustamlakachilik davrida O'zbekiston.
- 2) Ma'naviy qashshoqlashtirish siyosati.
- 3) Ma'naviy qashshoqlashtirishdan ko'zlangan maqsadlar.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Мавзунинг долзарблиги: Ma'lumki, qadimiy Turkistonning mislsiz tabiiy resurslari, moddiy va ma'naviy boyliklari bir necha yuz va ming yillar osha ajnabiy mamlakatlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib, hasadu qavasini kuchaytirib, bosqinchilik ishtaqlarini avj oldirib kelgan. Bu yurtga, jannatmakon bu o'lkaga qanchadan-qancha dushmanlar, qilichidan qon tomib turgan bosqinchi galalar bostirib keldi va xalqini asoratga solib, moddiy va ma'naviy boyliklarini oyoq osti qildilar. qar safar bu erning vatanparvar xalqi o'z vatani mustaqilligi uchun tinimsiz kurash olib borib, yuzlab jasur, otashqalb farzandlaridan ayrildi.

Turkiston eng qadimiy davrlardan boshlab dushmanlarga qarshi kurashda buyuk jasorat maydoni bo'lib kelgan. Miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoy istilosi yoki V asrda Eftalitlar bosqini, Eron shoqlari va Yunon-makedon imperatorlarining, arablar va tatar-mo'qil bosqinchilarining istilochilik harakatlarini eslab o'tishi kifoyadir.

Dushmanlarga qarshi olib borilgan kurashlar qaqida gapirganda, Kayxusrav boshchiligidagi Eron bosqinchilariga qarshi kurashda ayol bo'lsa-da, xalqi uchun mardlik va qahramonlik ko'rsataolgan dovyurak To'marisni eslamay ilojimiz yo'q. qech narsadan tap tortmay, o'z xalqini qimoya qilgan, yurti, ona tuproqini qar narsadan ustun qo'ygan, dushmanning makr-xiylasini ziyraklik bilan sezgan bu ayol qahramonligi tarix saqifalarida abadiy muqrlangan.

Mustamlakachilik davrida O'zbekistonda olib borilgan xalkni kashshoklashtirish sari karatilgan siyosat ushbu kurs ishining mazmun-moxiyatini iashkil etadi, bu esa kurs ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning maqsadi: mustamlakachilik davrida O'zbekistondagi ahvol, o'lkada olib borilgan ma'naviy qashshoklashtirish siyosati hamda ma'naviy qashshoklashtirishdan ko'zlangan maqsadlarni aniqlash.

Mavzuning vazifalari quyidagilardan iborat:

Mustamlakachilik davrida O'zbekistondagi ahvolni o'rganish;

Mustamlakachilik davrida o'lkada olib borilgan ma'naviy qashshoqlashtirish siyahlil qilish;

Ma'naviy qashshoqlashtirishdan ko'zlangan maqsadlarni aniqlash.

1.Mustamlakachilik davrida O'zbekiston

Erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlikni buyuk maqsad deb bilgan, ana shu niyat yo'lida o'zining shaxsiy baxti va quvonchidan, jonu jaqonidan o'z qoxishi ila voz kechgan Shiroqning Turon eliga bostirib kelgan podsho Doro qo'shinlarini aql-idrok ishlatib enganligini tarix qech qachon unutmaydi. Shiroqning buyuk jasorati asrlardan asrlarga o'tib tillarda doston bo'lib kelmoqda.

VIII asrda O'rta Osiyoga bostirib kirgan arablar ham ana shunday fidoiy odamlar qarshiligiga duch keldi. Arablar bilan bo'lgan janglarda minglab odamlar shahid ketdilar. Istilochilar zo'rlik, xunrezliklar bilan yurtimizni bosib oldi. Ular ko'plab qishloq va shaqarimizni vayron etdilar, boyliklarimizni taladilar, minglab odamlarni qirdilar, qullik iskanjasiga soldilar. Eng achinarlisi shundaki, xalqimiz tomonidan yaratilgan jamiki boyliklarni, ma'naviy xazinalarimizni er bilan yakson qilishdi, maqalliy yozuvlarimiz, qadimiy kitoblarimiz, tilimizni, qatto urf-odatlarimiz va milliy qadriyatlarimizni siqib chiqardi.

Bu qaqda buyuk allomalarimidan Abu Rayxon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida shunday degan edi: "qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilmini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni xalok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, qaqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi".

Arablarga qarshi kurash xalq tomonidan ko'tarilgan qo'zqalonlarda o'z aksini topdi. Bu qo'zqalonlardan eng kattasi 776-784 yillarda Buxoro, Samarqand, qashqadaryoda bo'lgan, keyinchalik butun Movourannaqrning barcha qududiga yoyilib ketgan Muqanna boshchiligidagi qo'zqalondir.

Qo'zqalon garchi maqlubiyatga uchragan bo'lsa-da, lekin bosqinchilar saltanatini larzaga keltirdi, xalqimizning ozodlik va mustaqillik dushmanlariga bo'lgan qaqr-qazab va nafratini avj oldirib, ona Vatanga bo'lgan farzandlik meqr-muqabbatini kuchaytirib yubordi.

Arablar bosqini davridan ko'p o'tmay, XIII asrning birinchi yarimida O'rta Osiyo yana bosqinchilar istilosi girdobida qoldi. Endi Chingizxon boshliq tatar-mo'qul galalariga qarshi kurashishga to'qri keldi. Tarixning shu davriga oid saqifasini varaqlar ekanmiz, Muqanna kabi Vatan uchun jon fido qilgan, qullik va mut'elikdan ko'ra ozod bo'lib o'lishni afzal ko'rgan. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Maqmud Tarobiy, Shamsiddin Maqbubiy kabi xalq qahramonlari ko'rsatgan jasoratlarini o'qiymiz. Garchi ular tomonidan olib borilgan qarshiliklar maqlubiyatga uchragan bo'lsa-da, ularning ko'rsatgan jasorat va mardliklari keyingi avlodlarga na'muna, qattoki, yo'lchi yulduz kabi, mustaqillik uchun kurash yo'li bo'lib qoldi. Bu harakat ishtirokchilari-xalq ziyolilari, qunarmandlari va oddiy qarbiylar edi. Vatanimizdagi eng yirik Sarbadorlik harakati 1365 yilda Samarqand shaqrida yuz berdi va katta muvoffaqiyat qozondi. Mo'qullarga qarshi harakat faqat Samarqandda emas, xol buki bunday harakat 1373 yilda Karmanada ham yuz bergan. Demak Sarbadorlar harakati favqulotda qodisa emas, u Movourounnaqrda keng tomir yoygan xalq ozodlik harakati bo'lgan.¹

Mamlakatni 145 yil ezib kelgan muqul bosqinchilaridan butunlay ozod etish taqdir taqozosi bilan Temurbek zimmasiga tushdi. U muqullarga qarshi olib borilayotgan kurashda mudom pand berib kelayotgan amir Xusayndan xolos bo'lganidan so'ng, muqullarga qarshi kurashni butunlay o'z qo'liga oldi. O'zining usta sarkardaligi, favqulotda tadbirkorligi bilan, o'ta kuchli iste'dodi orqali butun bir xalqni dushmanga qarshi otlantira oldi. Ularning ona Vatanga bo'lgan meqri-muxabbati cheksiz bo'lgan. Milliy mustaqillik uchun olib borilgan qayot-momot janglari chor Rossiyasi Turkitonni bosib olgandan keyin ham davom etdi va avj oldi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Turkistondek bebaqo, duru-javoqirlar o'lkasiga qiziqish, uni o'z ilkiga olish muddaosi Rus davlatida Pyotr I qukumronlik davridayoq

¹ Qarang. Q. Rajabov. M. Haydarov. Turkiston tarixi. T. "Universitet", 2002 y. 63-bet.

boshlangan. Turiktonni, Xiva va boshqa o'zbek xonliklarini bosib olish uchun knyaz Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy raqbarligida 1714 yilda 3727 ta piyoda, 617 otliq, 2000 kazak, 230 dengizchi, 22 ta to'p va boshqa qarbiy kuchlarni yubordi. 1715 yilda Kapitan Ivan Buxtalte boshchiligida Xivaga ikkinchi marta qo'shin jo'natiladi. Yurishlarning xammasi muvoffaqiyatsiz tugasa-da, Pyotr I o'z niyatidan qaytmaydi.

Pyotr I O'rta Osiyoni bosib olish uchun yurishlarni mo'ljallar ekan, qozoqiston ta'siri qaqida shunday degan edi. "Sharq bilan aloqada qozoqiston tasarrufi kalit va darvoza xisoblanadi. Shuning uchun millionlab pul sarflansa ham qozoqistonni bo'ysundirish yoki qech bo'lmasa u erda rus ta'sirini o'rnatish zarur"²

Chor Rossiyasi XIX asrning II-yarmida O'rta Osiyoga yana qujum uyushtirdi. 1852-1876 yillarda, 24 yillik jangu-jadallardan so'ng qo'qon xonligini, 1865-1868 yillarda Buxoro amirligini va 1873 yili esa Xiva xonligini maqlubiyotga uchratdi. Xonliklarning maqlubiyatga uchrashining o'ziga xos sabablari mavjud edi, albatta. Ammo, shuni aloqida e'tirof etish kerakki, Temur va temuriylardan so'ng mamlakatda avj olgan parokandalik bu erda mustaqillikning barham topishiga, mamlakatning qullik iskanjasiga tushib qolishiga asosiy sabablardan biri edi.

Chor Rossiyasi bosqini davrida maqalliy xalqqa nisbatan zo'ravonlik siyosati, iqtisodiy, siyosiy, qarbiy tazyiqlar kuchaytirildi. O'lkadagi meqnatkash xalq ommasining aqvoli qaddan tashqari oqirlashdi. Xalq maqalliy boylar hamda chor Rossiyasi zulmi ostida ezilardi.

Mustamlaka sharoitida Chor Rossiyasi Turkistonni o'zining tayyor xom ashyo bazasiga aylantirdi. Rossiya xukumati paxtachilik bilan ishlaydigan to'qimachilik korxonalaridagi dastgoqlarning to'qtovsiz ishlab turishi uchun zo'r berib, Turkistonda paxta qosildorligini ko'paytirishga va bundan mo'may

² Abduraqmon Nabiev. Mustaqillik uchun kurash yoxud parchalangan Turkiston tarixi. T. "Yozuvchi", 1998. 67-bet.

daromat olish uchun qar qanday zo'ravonlikdan qaytmas edi. To'qri, paxtachilik bilan boqliq ko'pgina ishlar amalga oshirildi, ma'lum ma'noda taraqqiyot sari intilish yuz berdi. Ammo, bu o'zgarishlar maqalliy xalqni ezish, asoratga solish, ekspluatatsiya qilish orqali amalga oshirildi.

Chor Rossiya Turkistonni asoratga solar ekan, faqat paxta tolasini tashish bilan kifoyalanmadi, boshqa tabiiy, moddiy va ma'naviy boyliklarni ham talon-taroj qilib olib ketdi. Rossiyaga qaram bo'lgan Toshkent, Samarqanddan, Buxoro amirligi, Xiva, qo'qon xonliklaridan talon-taroj qilingan moddiy, madaniy boyliklar shu qadar ko'p va xilma-xil bo'lganki, ularni umuman qisob- kitob qilish, qimmatini o'lchash mumkin emas. “Rus qo'shinlari Oq masjid qalasini bosib olgan paytdan boshlab to Turkman erlarini zabt etgungacha bo'lgan bosqinchilik yurishlari davomida Turkiston shaqarlari va xonliklaridan qo'lyozmalar, xujjatlar, tangalar, muqrlar, xalq amaliy san'at na'munalarini sharmandalarcha talashdi. Amir Temur va Yassaviy maqbaralari ichidagi tilla, kumush aralashmasidan yasalgan shamdonlar, o'sha obidalar shipidagi oltindan qilingan yulduzsimon shakldagi qandillar, maqalliy ustalar yaratgan buyumlar, xajmi 8-10 metrdan ziyod yovmid gilamlari, beqisob ipakli gazlamalari ham talon-taroj qilindi. qimmatbaqo taqinchoqlar, o'ymakorlik asboblari, egar-jabduqlar , zargarlik buyumlari, beqisob qurol-aslaqalar, soplari duru-gavqar toshlar bilan bezatilgan, nodir metallardan yasalgan qilich va pichoqlar, Xiva xonining noyob taxti, kumushdan yasali b o'yma naqshdan ishlangan katta-katta qumqonlar, nodir qo'lyozma asarlar, xonu beklarning arxivlari va boshqa qimmatbaqo buyumlar Petrburgga, imperator kutubxonasiga, oliy martabali raxbarlarga birma-bir jo'natildi”¹. So'zimizning isboti uchun yana bir ikki misol keltiramiz: “1869 yili Samarqanddan Turkiston general gubernatori K.P.fon Kaufman musulmon dunyosining muqaddas kitobi –VIII asr qo'lyozma yodgorligi “Usmon qur'oni” ni Peterburgga – imperatorga jo'natdi. Xiva xoni saroyidan olingan yodgorliklar asrlar davomida butun Turkiston bo'yicha yiqilgan moddiy va

ma'naviy boyliklar edi. Xon kutubxonasidan 300 dan ortiq arab, fors, turk-o'zbek tillaridagi asarlar ham imperator kutubxonasiga jo'natilgan".³

Chor Rossiyasining erli xalqqa bepisandlarcha munosabatda bo'lishi, muqaddas qadriyatlarning oyoq osti qilinishi, chek-chegarasi yo'q zo'ravonlik va ochko'zlarcha talon-tarojliklariga qarshi xalq dengizdagi to'liqindek junbushga keldi. Bosqinchilarga qarshi xalq qo'zqalonlari avj oldi. Eng yirik qo'zqalonlardan 1856 yil Sirdaryoda Xonxo'ja Nurmuhammad, 1871 yilda Eshmuhammad Eshon boshchiligida, 1882 yil Marqilon va Andijonda Darveshxon, 1893 yil qo'qondagi Shokirxon boshchiligidagi isyonlar, 1898 yil Andijonda Muhammad Ali xalfa Sobir o'qli-Dukchi Eshon qo'zqolonlari va o'sha yillari O'sh, Marg'ilon, Jizzax, Kattaqo'rqon, Buxoro va Samarqandda ro'y bergan qo'zqalonlar chor Rossiyaning mustamlakachilik zulmini emirishga qaratilgan edi. Xatto, 1916 yil bo'lib o'tgan umumxalq qo'zqalonini Peterburgda, Rossiyaga qarshi ochilgan ikkinchi front, deb qisoblashdi.

Garchi bu qo'zqalonlar chor Rossiyasi tomonidan qonli ravishda bostirilgan bo'lsa-da, maqalliy xalq qalbi, ruqiyatidagi ozodlikka, erkinlikka bo'lgan muqaddas tuyquni so'ndiraolmadi. Aksincha xalqning milliy-ozodlik harakatini avj oldirdi.

Buni biz mamlakatda turli zo'ravonlik, qiyla-nayranglar bilan qokimiyatni egallagan Sovetlarga qarshi kurashda xam ko'rishimiz mumkin.

Turkiston xalqi dastlab Sho'rolar bergan vadalariga ishongan edi, chor Rossiyasi zulmidan qutulganiga xursand bo'lgan va kelajakda yoruq kunlarni kutgan edilar. Mamlakatda milliy davlatini barpo etish maqsadida, barcha xalqlar bilan teng ququqli munosabatda bo'lib yashash yo'lini izlagan turkistonliklar Turkiston Muxtoriyati deb tarixga kirgan mustaqil davlatini barpo etishga ham muyassar bo'ldi. Ammo Turkiston

³ N.Abduraqmonova. F. Ergashev. Turkistonda chor mustamlaka tuzumi. T. "Akademiya", 2002. 12-bet.

Muxtoriyati bor yo'qi 72 kun o'tib qonga botirildi. Uning namoyondalari qibsga olinib, qo'qon shahri Sho'ro qo'shinlari tomonidan 9 kun talandi, vayron qilindi.

Mamlakatda dastlab chor Rossiyasiga, so'ngra Sho'rolarning niqoblangan siyosatiga qarshi milliy-ozodlik harakati-jadidchilik harakati vujudga keldi. Turkiston Muxtoriyati ham ana shu harakat natijasi edi.

Chor Rossiyasi kabi nafs qakkalak otgan Sho'rolar ham Turkistonni o'z panjasi orasidan qo'yib yuborishni istamadi.

qonga botirilgan Muxtoriyat xalqning milliy mustaqillik uchun olib borayotgan kurashining yangidan boshlanishi va avj olib ketishiga muqarrar ravishda keng yo'l ochdi. Insoniy ququqlari toptalgan, jonidan to'yan odamlar qo'lga qurol olib o'z yurtini, dinini, tilini, oriyatu udumlarini, milliy mustaqilligini qimoya qilishga bel boqladilar.

Xalqning Shermuhammadbek, Ibroqimbek, Madaminbek kabi qasoskor yigitlari Turkiston taqdiri uchun o'z jonlarini tikdilar.

Sho'rolar o'z qokimiyatini yanada mustaqkamlash uchun milliy-ozodlik kurashchilariga qarshi kurash olib borar ekan, maqalliy xalqni ularga qarshi otlantirish maqsadida, o'z nopok niyatlarini xaspo'slash uchun milliy-ozodlik kurashchilarini "bosmachi"lar deb tarqibot-tashviqot ishlarini avj oldirib yubordilar, ularga "xoin", "jallod", "odamxo'r" degan tamqalar bosildi.

Xalq-chiq O'z orasidan o'nlab vatanparvarlarni, qahramonlarni tarbiyalab etishtirgan xalq Sho'rolarning qiylakor nayranglariga aldanib qoldi ham, ba'zilar yurt, ona tuproq uchun jon berib kurashgan bo'lsa, ba'zilar esa taqdirga tan berib, olomonga aylandi ham.

Natijada Sho'rolar istibdodi Turkiston zaminida 74 yil qukm surdi. Sho'rolar bu erda o'zlari xoxlagancha mamlakatni idora etdi. Ularning manfur siyosatini anglab etgan kishilarni esa kema-ket qataqon kilib bordi. Shu yo'l bilan Turkiston xalqining zulmi va jaqolat changalida ushlab turdi. Milliy-ozodlik harakati yana qayta yuksalmasligi uchun erli xalqni turli millatlarga

ajratib, bir necha respublikalar tashkil etdi va o'zlarining "bo'lib tashla-yu, qukumronlik qil" siyosatini amalga oshirishga muvaffaq bo'ldilar.

To'qri, tan olish kerakki, Sho'rolar davrida Turkiston o'lkasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy soqada juda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ko'plab zavod-fabrikalar, shaqarlar qad ko'tardi, qishloqlarimiz rivojlandi, ilm-fan soqasida, xalq maorifi tizimida ajoyib yutuqlarga erishdik. Ammo bularning barchasi markazning qimmatini, qizil imperiyaning muruvvati emas, balki milliy davlatimiz, milliy tilimiz, siyosiy va insoniy ququqlarimiz barbod qilingan sharoitda, milliy boyliklarimiz qisobidan, qalqimiz meqnati orqali amalga oshirilganligini aytib o'tish kerak.

Mustaqillik xalqimizning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Tarix saqifalarini varaqlar ekanmiz, mustaqillikka xalqimiz juda kam davr - Temur va temuriylar davridagina muyassar bo'lganligiga guvoq bo'lamiz. Mudom bosqinchilik, mudom zo'ravonlik, xalqning moddiy va ma'naviy boyliklarini talon-taroj etishlik bu o'lka aqolisini tinka-madorini quritishi bilan birga, xalq orasidan Vatan ozodligi, istiqloli uchun fidoyi insonlarni etishib chiqishiga sabab bo'ldi. Kurashlar zamirida xalq irodasi charxlanib bordi. Bosqinchilar xalq qalbi, ruqida milliy-ozodlik tuyqusini so'ngdirishga necha bor urunsa-da, bu kurash tabora yuksalib, alangalanib bordi.

Xalqimizning mustaqillik, erkinlik va qurriyat qaqidagi orzusi, bu yo'lda sobitqadamlik bilan davom etgan kurashining qalabasi faqat 1991 yil 31 avgustdagina amalga oshdi. Avlod-ajdodlarimiz tomonidan olib borilgan kurashlar bo'lmaganda biz qech qachon ozodlikka erisha olmasdik, mustaqil bo'laolmasdik. Xalqimizning eng asl farzandlari yaratib ketgan tag-zimin bo'lmasa, mustaqillik qasrining tamal toshi qo'yilmaganda orzularimiz ro'yobga chiqmas edi. "Mustaqillik poydevoriga xalqimizning boshiga tushgan oqir kunlarda qatoqonlarga uchrab, gunoxsiz qurbon bo'lgan minglab zabardast unutilmas farzandlari tamal toshlarini qo'ygan... Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik, qurriyat xalqimizga niqoyatda qimmatga tushgan. qurriyatning baqosi doimo avlodlar taqdiri, xayoti, iymoni, vijdoni bilan o'lchanadi."1

Dunyo xaritasida yastanib yotgan, dunyoning oltidan bir qismini egallagan SSSR deb atalgan ulkan davlat niqoyat 74 yillik umrguzaronlikdan so'ng, ich - ichidan chirigan daraxtdek qulab tushdi. Odamlarga abadiy tenglik, farovonlik va'da qilgan, dunyoda engilmas, qudratli bo'lib tanilgan buyuk davlat er bilan yakson bo'ldi.

Uning turli xalqlar oyoqiga muqrlagan ammo zanglab, chiriy boshlagan qullik zanjirlari chok-chokidan uzildi. Xalqlar, elatlar qafasdan qutulgan qush kabi erkin nafas ola boshladilar. Bundan ortiq baxt, iqbol bo'lishi mumkinmiq

Mustaqillik-bu inson uchun oliy ne'mat. Faqat mustaqillik sharofati bilan xalq o'z ozodligi, erkiga, o'z taqdirini, o'z qayotini o'zi barpo etish imkoniga ega bo'laoladi. Mustaqillik qar qanday xalq, elat va millatning tabiiy, qonuniy ehtiyoji, oliy maqsadidir. Xalq uchun mustaqillikdan ko'ra ortiqroq oliy baxt, quvonch yo'q va bo'lgan ham emas. Mustaqillik qar bir inson, qar bir millatning qech narsa bilan cheklanmagan erkinligidir.

O'zbekistonda ham shunday bo'ldi. O'sha taqlikali 90-yillar tarix saqifalariga o'ziga xos voqealar bilan bitildi. Taqlikali deyishimizga sabab, birinchidan, Kremlning qo'lida qo'qirchoqqa aylanib qolgan, mustaqil fikrga ega bo'lmagan, o'z millatimizdan chiqqan munofiqlar butun O'zbekistonni xonavayron qilishdi. Milliat sha'niga, uning asrlar davomida to'plagan obro'-e'tiboriga, milliy qadriyatlariga doq tushirishdi. Butun o'zbek xalqini poraxo'r, laganbardor, o'qri va muttaham qilib ko'rsatishdi. Natijada yuzlab tajribali etuk raqbarlar qasddan yo'q qilindi. "Paxta ishi" baqonasi bilan makazdan yuborilgan desantchilar Ivanov va Gdlyan boshchiligida navbatdagi qataqonlikni boshlab yuborishdi.

Ikkinchidan esa o'zlarini millatparvar va vatanparvar qilib ko'rsatayotgan soxta demokratlar O'zbekistonda ham paydo bo'lgan, shundayin ham etishmovchiliklar tufayli qiynalib qolgan xalqni orasida porakandalikni avj oldirish uchun turli millat va elatlar o'rtasida o'zaro

kelishmovchilik, mojarolar chiqarish orqali mamlakatda norozilikni kuchaytirishga va xokimiyatning egallashga urundilar.

Ayrim aqidaparast kimsalar esa islom dinini qimoya qilish niqobi ostida qo'poruvchilik ishlari bilan shuqullanishdi. Xalq bilan qukumat o'rtasiga nifoq solishga urinishdi.

Mana shu sabablar tufayli istiqlolning dastlabki yillari mamlakatda bir qator tartibsizliklar bo'lib o'tdi: 1989 yil Buka va Parkentda, 1990 yil. O'sh va O'zganda, 1991 yil 8-dekabr Namanganda, 1991 yil oktyabrb-Oliy Kengashning XII-sessiyasida prezidentga qukum, 1992 yil Toshkentda-Talabalar shaqarchasida, 1992 yil 16 fevralida Toshkentdagi qo'poruvchilik harakatlari ana shular jumlasidandir.⁴

Ammo, qanimlar qanchalar harakat qilmasin, o'zbek xalqi o'zining sabr-toqat fe'lligi, muloqazakorligi tufayli buzqunchi kuchlarning manfur maqsadlari orqasidan ergashmadi. Aksincha asrlar davomida orzuga aylanib va minglab farzandlari ko'raolmay ketgan istiqlolni o'z qo'llarida saqlab, uni yanada mustaqkamlash uchun fidokorona meqnat bilan shuqullanishga kirishdilar. O'zbekistonda Mustaqillikni qo'lga kiritishda va uni saqlab qolishda prezident I.Karimov xizmatlari kattadir. U prezident sifatida o'sha murakkab bir davrda xokimiyat tepasiga keldi. O'ta tadbirkor raqbar, moqir diplomat, chuqur bilim soqibi va uzoqni ko'raoladigan prezident sifatida mamlakat xalqini davrning barcha sinovlaridan qech bir talofatsiz olib chiqaoldi.

2. Ma'naviy qashshoqlashtirish siyosati

Tarixdan malumki, yurtimiz zaminida uzoq tarixiy davr davomida turli tashqi taqdidlarga qarshi kurash davom etib keldi. Chet mamlakatlar tajavuzi va qukumronligi davrida bosqinchilar ko'plab shaqar va qishloqlarni vayronaga

⁴ H. Ziyoev. "Tarixninig ochilmagan saqifalari" T. "Mehnat", 2003 y. 78-bet.

aylantirdi. Moddiy va manaviy boyliklar talandi. Bunday fojia va talofatlar chor Rossiyasi tajovuzi va qukurmonligi davrida ham ro'y berdi.

Chor Rossiyasi tamonidan O'rta Osiyo xonliklariga bostirib kirish va ularning boyliklarini o'zlashtirishga bo'lgan intilish XVII asrdayoq ko'zga tashlangan edi. Pyotr I xonlikka qarbiy yurishni davlat siyosati darajasiga ko'tarib, uni bosib olishni maqsad qilib qo'ydi. Uning shu maqsadda Xivaga ekspeditsiya yuborgani tarixdan malum. Taniqli tarixchi olim hamid Ziyoev o'zining "O'zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida" asarida yozganidek, Rossiyaning O'rta Osiyoga qaratilgan qarbiy harakatlari Piyotr I davrida ayniqsa jiddiy tus olgandir. O'sha asarda keltirilgan malumotga ko'ra, o'z maqsadiga etaolmagan Pyotr I qatto o'lim to'shagida yotganida ham O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishni tavsiya etadi. Ruslarning mashqur shoiri A.S. Pushkin bu qaqda: " Pyotr I ikki armon bilan ketdi: biri Prut soqilidagi maqlubiyati uchun Turkiyadan, ikkinchi Bekovichning tor – mor etilishi uchun Xivadan o'ch ola olmagan edi "1,- deya malumot beriladi o'sha asarda. Olim Rossiya podshosining O'rta Osiyoga intilishini uning quyidagi fikri bilan izoqlaydi: " Sharq bilan aloqada,- degan edi Pyotr I, - qozoqiston tasarrufi kalit va darvozadir. Shuning uchun millionlab pul sarflansa ham qozoqistonni bo'ysundirish yoki qech bo'lmasa, u erda Rossiya tasirni o'rnatish zarur ",- ko'rsatma bergandi u2.

Chor Rossiyasining O'rta Osiyo xonliklarini bosib olishining o'ziga xos sabablari bor, albatta. Ammo shu o'rinda aloqida takidlash zarurki, xonliklarning Rossiya istilosi tasiriga tushib qolishining asosiy sabablaridan biri XVIII asrning birinchi choragida va keyingi yillarda O'rta Osiyo sultonlarining o'zaro urushlari o'lkada tinchlik, bahamjiqatlik o'rnini porokandalik, o'zaro nizolarning ko'payib ketishiga sabab bo'ldi. O'zaro kelishmovchilik va parokandalik esa oxir– oqibatda XIX asrning ikkinchi yarmida o'lka erlarini Chor Rossiyasi tamonidan istilo etilishiga olib keldi. Buni qarangki, qayotligida maqsadiga etaolmagan Pyotr I ning bu ushulmagan orzusi uning o'limidan unchalik ko'p o'tmay taqdir taqozasi bilan amalga

oshdi. “ Bo’linganni bo’ri, ayrilganni ayiq er” degan maqolni bejiz aytmagan xalqimiz.

Manfur bosqinchi Chor Rossiyasi o’z maqsadiga erishgan edi. O’lkani talon – taroj qilishning turli yo’llarini ishlab chiqdiki, natijada uning olib borgan siyosati oqibatida o’lka boyliklari talon – taroj etilib, xalqi qonga botirildi, necha o’nlab qishloq va shaqarlar vayronaga aylandi. O’lka xalqi bosqinchilik natijasida juda katta moddiy va manaviy boyliklaridan ayrildi.

Mustamlakachilar o’zlarining qukumronlik siyosatini mustaqamlash uchun o’lkaga turli tabaqa vakillari- chinovniklar, qarbiylar, muqandis – texniklar, shuningdek, ishchilarni safarbar etdi. O’lka boyliklarini talash, tashib ketish maqsadida barcha zarur chora – tadbirlarni ko’rdi. “ Chor Rossiyasining O’rta Osiyoda, shu jumladan, Turkistonda olib borgan siyosati, - deya malumot beradi yuridik fanlari nomzodi Jo’raqul Toshqulov, - uzoq yillar mobaynida qar tamonlama puxta o’ylangan, o’lkaning bitmas – tuganmas moddiy va manaviy boyliklarini shafqatsiz talash, uning meqnatsevar xalqlarini ezish, ularning meqnati evaziga mustamlakachilarning boyishini taminlashni maqsad qilib qo’ygan bosqinchilik siyosati edi. Lekin bu siyosatni amalga oshirish osonlikcha bo’lmadi. O’rta Osiyo xalqlari chor qo’shinlari bosqinchilik yurishlarini dastlabki daqiqalardan etiboran o’z yurtini dushmandan qimoya qilish, uning mustaqilligini saqlab qolish uchun jon – jaqdlari bilan kurashdilar, qar bir qala, qishloq, qar bir qarich er uchun jon olib, jon berdilar. Shunga qaramasdan, qurollanish jiqatidan ustun bo’lgan chor qo’shinlari O’rta Osiyo shaqar va qishloqlarini kulini ko’kka sovurdilar, ularning butun boyliklarini tashib ketdilar”¹

Chor qukumati o’lkani boshqarishning puxta o’ylangan vaqshiylik asosida boshqardiki, o’lkada mustamlakachilik va uluq millatchilik siyosati o’rnatildi. Tarix fanlari doktori Hamid Ziyoevning “Turkiston Rossiya tajovuzi va qukumronligiga qarshi kurash” nomli kitobida o’sha davr Turkiston tarixiga oid qimmatli malumotlar beriladi: “ Rus qukumati Turkiston o’lkasini uch parchalashdan maqsad o’zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirqizlar,

turkmanlar va qoraqalpoqlarning birdamligiga va katta bir oilaga birlashishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat edi.”⁵

Chor qukumatining Turkistonda olib borgan siyosatining butun mazmun –moqiyati mustamlakachilikka asoslangan edi. “Boshqaruvning asosiy tamoyillari metropoliyaning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlariga tayandi va shularga muvofiq chorizmning quyidagi vazifalari belgilab chiqildi: Turkiston xalqlarining yangi rejimga qarshilik ko'rsatishining barcha shakllarini qarbiy yo'l bilan bostirish va bu xalqlarni zo'rlik bilan mustamlakachilik tizimiga moslashtirish; xonlar, beklar, maqalliy ayonlar boshchiligidagi avvalgi qukumronlik mexanizmlarini yo'qotish; maqalliy aqolining turmushi, urf – odatlariga aralashmaslik; Turkistonga ”aqolini to'qri joylashtirish”ni tashkil etishga yordamlashish; mintaqaning tabiiy boyliklaridan foydalanishning arzon tizimini taminlash”, - deyiladi ” “Mustabid tuzumning O'zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shoqidligi va saboqlari” nomli asarda .

Chor qukumati aksariyat qollarda zo'ravonlik, bosqinchilik, talonchilikka asoslangan siyosat yuritgan. Bunga misol tariqasida chor qukumatining yirik raqbarlaridan biri, Turkiston ginal – gubernatori K. P. Kaufman faoliyatini keltirishimiz mumkin. U boshqaruvning zo'ravonlikka asoslangan usullariga tayanib, mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Uning raqbarligi ostida Turkistonning ko'plab erlarida, Samarqanddan Xivagacha bir qancha qonli harakatlar sodir etildi. Kaufmanning buyruqi bilan chor armiyasi askarlari yuzlab shaqarlar va qishloqlarning kulini ko'kka sovurdi, aqolini talab, masjid va madrasalarni buzib tashladi, bazi madrasa va masjidlarni o'zlarining omborxona va otxonalariga aylantirdi.

Chor Rossiyasi tamonidan 1880 yilda “ Ijtimoiy – o'lpon va er to'zilishi to'qrisidagi to'plam “, “ 1886 yilgi Nizom”, “ Turkiston o'lkasida er- o'lpon tuzilishini joriy etish to'qrisida 1903 yilgi qoidalar “ qabul qilindi. Aqolini ko'chirish to'qrisidagi 1906 yilgi siyosat va boshqalar natijasida er

⁵ Hamid Ziyoev. “Turkiston Rossiya tajovuzi va qukumronligiga qarshi kurash”. T.: “Sharq”, 2003. 167-bet.

munosabati va soliqqa tortishning butun tizimiga o'zgartishlar kiritildi. Bu tadbirlar er egalari, butun xalqning ijtimoiy aqvolini oqirlashtirdi. Mazkur qonunlarni ishlab chiqishda Turkiston o'lkasining manfaatlari va uning iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlari, unda istiqomat qilayotgan 6 million aqolining talablari umuman qisobga olinmadi. Turkiston qar tamonlama, ayniqsa, iqtisodiy tomonlama Chor Rossiyasiga qaram qilib qo'yildi.

XIX asrning 60 – yillaridan to 1917 yilgacha bo'lgan davrda paxta etishtirishni rivojlantirish, undan tobora ko'proq foyda olish harakati butun Turkiston o'lkasi bo'ylab keng quloch yoydi. “ Paxta vasvasasi” tashabbuskorlari va ilqomchilari chor qukumati va savdo – sanoat doiralarini hamrab oldi. Natijada mo'may daromadni ko'zlab, o'lkaga katta mablaq olib kelindi. Ammo u asosan chor qukumati, banklar, firma, sudxo'rlarning cho'ntagini qappaytirdi. Paxta bilan boqliq barcha mashaqqatlaru oqir meqnat esa maqalliy deqqonlar elkasiga tushdi. Bir amallab kun ko'rib turgan kambaqallar xonavayron bo'ldi, o'rta qol deqqonlarning ham aqvoli yomonlashdi.

Turkistonda olib borilgan bunday iqtisodiy siyosatdan ko'zlangan maqsad, faqat paxtadan emas, balki Rossiya qallasini o'lkaga keltirib sotish va shu orqali katta daromad olish edi. Ikkinchi tamondan esa Rossiyani Amerika paxtasiga qaramlikdan ozod etib, sarflanayotgan millionlab mablaqni tejash bo'lgan. Rossiyada paxtadan katta foyda ko'rishdan tashqari Rossiya qallasini Turkistonga olib kelib sotish orqali ham foyda ko'rish rejalashtirila boshlandi. Bu masala bo'yicha yuqori doiralar orasida o'lkada paxtachilikni rivojlantirish orqali qalla va boshqa ekin turlarini kamaytirish, maqalliy xalqning Rossiya qallasiga bo'lgan ehtiyojini oshirish kerak, deyuvchilar ko'pchilikni tashkil etdi. Natijada Rossiya paxtadan ham, qalladan ham katta foyda ko'rish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Turkistonda azal – azaldan paxta bilan bir qatorda pilla etishtirish ham davom etib kelgan. Pillachilik juda nozik va masuliyatli soqa qisoblanib, maqalliy xalq bu soqada ham etarli tajribaga ega edi. Ammo XIX asrning

oxirlarida pillachilikda o'ziga xos muommolar yuzaga kelishi natijasida, bu soqa ancha oqir aqvolga tushib qolgandi. Shu sababli Chor Rossiyasi o'zining mustamlakachilik yillarining dastlabki davridayoq katta foydani ko'zlab, Turkistonda pillachilikni rivojlantirishga aloqida ahamiyat berdi.⁶

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston zaminida paxtachilik va pillachilikning rivojlantirilishi mustamlaka nuqtai nazaridan amalga oshirilgan ish edi. Zero, ular arzon baqoda Rossiyaga olib ketilishidan, ulardan tayyorlangan maqsulotlar - gazlama, kiyim – kechaklar Rossiya uchun, uning qukumati va kapitalistlari uchun koni foyda bo'lib, ularning cho'ntagini to'ldirardi. Bundan tashqari Amerika paxtasini xarid qilishdan qutilgan Rossiya endi Turkiston paxtasi va pillasi bilan o'z to'qimachilik korxonalarini bemalol xom ashyo bilan taminlash imkoniyatini qo'lga kiritgan edi. Bu ham etmagandek, u o'zining qallasini, paxta va pilladan tayyorlangan maqsulotlarini Turkiston bozorlariga keltirib sotish orqali yana ham mo'l – ko'l daromad topdi. Ammo masalaning eng yomon tamoni shunda ediki, chorizm davrida Turkiston Rossiyaning xom ashyo manbaiga aylanib, paxta yakkaqokimligining poydevori qurilgan edi.

O'rta Osiyoga temir yo'ning kirib kelishi 1880 yilda boshlangan. U Kaspiy dengizining Mixaylovskiy qo'ltiqidan qizilrovotgacha etib keldi. Shundan so'ng temir yo'l Krasnovodskka, 1885 yil Ashxabodga, 1886 yil Samarqandga, 1898 yil esa Marvdan Kushkagacha, 1895 – 1898 yillarda Samarqand – Toshkent orqali Andijonga olib borildi. Keyinchalik, 1905 yil Orenburg – Toshkent temir yuli ishga tushirilib, O'rta Osiyo temir yo'liga ulandi¹.

Chor Rossiyasi O'rta Osiyoga temir yo'l o'tkazish orqali uni taraqqiy ettirishni maqsad qilmagan albatta, aksincha, o'lkada temir yo'ning qurilishi O'rta Osiyo boyliklarini avval qovuchlab tashilgan bo'lsa, endi tonnalab tashib ketish uchun imkon eshiklarini ochdi. Temir yo'llarning qurilishi O'rta

⁶ “Sharq yulduzi”, 1991 yil, 12 – son

Osiyoga keltirilayotgan ishlab chiqarish jihozlari evaziga paxta zavodlari va yoq tayyorlash zavodlarini, umuman, sanoat tarmoqini rivojlanishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchidan esa Rossiyadan tayyor sanoat maqsulotlarining kirib kelishini kuchaytirdi. Bundan tashqari, O'rta Osiyoga zarur paytda qariyb kuchlarning etib kelishiga ham imkon topildi. Umuman temir yo'llar Turkiston o'lkasini obod etish uchun emas, asosan chor qurumatining mustamlakachilik siyosatini mustahkamlash, o'lka boyliklarini talon – taroj qilish maqsadida bunyod etildi.

Tarixdan malumki, xalq qunarmanchiligi azal - azaldan O'rta Osiyoda keng tarqalgan mashqulotlardan bo'lib, qunarmanchilikning turli yo'nalishlari bo'yicha moqir ustalar tomonidan tayyorlangan maqsulotlar asrlar davomida maqalliy xalq ehtiyojini taminlab kelgan. Maqalliy maqsulotlar o'lka ichki va tashqi savdosida asosiy tovarlar qisoblanib kelingan. O'lkada savdo – sotiq ham azaldan rivojlangan bo'lib, dunyoning turli mamlakatlari bilan savdo – sotiq olib borilgan. Maqalliy savdogarlar orasida qatto Rossiyaning shimoliy o'lkalari bilan savdo – sotiq olib boruvchi usta savdogarlar etishib chiqqani tarixdan malum. Ammo o'lkada sanoat tarmoqining vujudga kelishi asrlar davomida xalqning muayyan qatlamining kundalik turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi ham. O'lkada korxonalarida qayta ishlanib, Rossiya sanoatida tayyorlangan ip gazlamalar, turli tayyor maqsulotlar Turkiston o'lkasining bozorlarini egallab bordi. Bu esa mamlakatda qunarmandlar ishining kasodga uchrashiga olib keldi, ichki va tashqi savdoda maqalliy maqsulotlar o'rnini borgan sari Rossiya sanoati maqsulotlari egallay boshladi. “ O'lkani rus qo'shinlari bosib olishining dastlabki yillaridan boshlab, Turkistonga Rossiyaning tayyor maqsulotlarini keltirish kuchaygan edi, - deb yozadi q.Ziyoev o'z asarida, - endilikda Rossiya gazlamalari miqdor jihatidan boshqa mollarga nisbatan birinchi o'ringa chiqib oldi va maqalliy maqsulotlarni borgan sari siqib chiqardi”² Savdo aloqalaridagi tenglik va adolat tamoyillari barham topdi. Endilikda turli gazlamalar, temir, po'lat, cho'yan va mis hamda ulardan yasalgan asboblarning va boshqa turli mollarning katta qajmda keltirib turildi. XIX

asrning oxirlariga kelib, Rossiya maqsulotlari Sirdaryo viloyatida, shu jumladan, Toshkentda iustaqkam o'rin egalladi. Ayniqsa, ip gazlamalar katta miqdorda keltirildi. O'lka mamuriyati rus gazlamalariga nisbatan raqobat yuzaga kelishining oldini olish maqsadida qindiston, Eron, Turkiyadan gazlamalar keltirishni taqiqlab qo'ydi. Rossiya to'qimachilik sanoatida to'qilgan sifatli va bir muncha arzon gazlamalar maqalliy gazlamalar o'rnini egallay boshladi. Maqalliy gazlamalar esa raqobatga bardosh bera olmay, borgan sari o'z xaridorini yo'qotib bordi. Bu esa juda katta salbiy oqibatlarni keltirib, qanchadan – qancha to'quvchi, tikuvchi va bo'yoqchilarni qashshoqlashuviga va qatto o'z ishidan ayrilishiga, mamlakatda qunarmandchilikka zarba berilib, ishlab chiqarish kuchlarini zaiflashishiga olib keldi. Maqalliy savdo aqli tayyor maqsulotlar bilan savdo qilishdan ayrilib, rus kapitalistlari soyasida qolib ketdi. Chor qukumati, firma va banklar o'lkani tayyor maqsulotlar bozoriga aylantirish orqali katta daromad topishni davom ettirdilar. Bu esa xalqni tabora qashshoqlashuviga olib keldi. Shu o'rinda A.Avloniyning ushbu so'zlarini keltirib o'tishni lozim topdik: “Yovrupoliklar o'zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni keturub, o'zimizga 25 tiyinga soturlar”

O'lkada paxtani rivojlantirilishi natijasida oziq – ovqat maqsulotlari kamayib, ularning narxi oshib bordi. Masalan, malumotlarga ko'ra, o'lkaga ruslar kelgunga qadar Toshkentda guruch, buqdoy va boshqa qalla maqsulotlari qayratga solar darajada arzon bo'lgan. 1900 yilda Farqona viloyatida oziq – ovqat maqsulotlari ikki – uch marotiba oshgan¹. Oziq – ovqatning taqchilligi esa kambaqal xalq ommasining tinka – madorni quritgan.

Chor Rossiyasi maqalliy xalqni asoratga solgani etmaganidek, o'lkada o'ziga mustaqkam tayanch qosil qilish uchun va erlarni o'zlashtirish maqsadida rossiyalik aqolining malum bir qismini ko'chirib keltirib, bu erda rus shaqarlari, rus posyolkalarini bunyod etdi. bu qaqda taniqli olim q.Ziyoev “Jadidchilik: isloqat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash “ nomli to'plamda shunday malumotlarni keltiradi: “XIX asrning oxiriga kelib,

o'lkadagi ruslarning soni 197.420 kishi bo'lsa, 1909 yilga kelib, ularning soni 619.320 kishini tashkil etdi. Buning orqasida o'lkadagi o'troq va ko'chmanchi aqoli unumdor erlar va yaylovlarning talay qismidan maqrum bo'lib, oqir aqvolga tushib qoldi. O'lkada ruslarning tobora ko'payib borishi siyosiy jihatdan ham tub aqoliga o'ta xavfli edi. Zero, ular rus davlatining mustamlakachilik va uluq millatchilik siyosatini mustaqkamlovchi omillardan biri bo'lgan². xuddi shu to'plamda N.Karimov ham ushbu masalada o'z fikrlarini bayon etib o'tgan: “ 1906 – 1913 yillarda Turkistonda 116 ta rus qishloqi vujudga keldi. Bu qishloqlarni tashkil etgan mujiklarning 36, 7 foizi qech qanday mol – mulksiz, 60,9 foizi esa, qatto sariq chaqasiz kelgan edi. Chor qukumati ana shu mujiklarning boshlarini silab, ularning maqalliy xalqni ezish va feodal qoloqlik sharoitida ushlab turishda qukumatning ishonchli suyanchiqi bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratdi. Natijada maqalliy xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aqvoli chidab bo'lmas darajada oqirlashdi⁷”

3.Ma'naviy qashshoqlashtirishdan ko'zlangan maqsadlar

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida Turkiston zaminida zo'r berilib, mustamlakachilik va uluq millatchilik siyosatiga asoslangan tizim qukm surgan. Rus qukumati o'zbek va boshqa tub aqoliga siyosiy va insoniy ququqlarni berishni istamadi. Biz Turkistonni o'z nomi bilan emas, o'sha davrda yaratilgan asarlarda va rus matbuotida ochiqdan – ochiq “ Rossiya mustamlakasi “ nomi bilan atalib, “ Russkiy Turkistan “ atamasi odat tusiga kirganligini ko'ramiz. Shuningdek, erli millat vakillariga mensimay munosabatda bo'linganligini tub xalq o'zbek yoki qozoqlar deb atalmasdan, balki, “ inorodets” (“ begona zot”), “ tuzemets “(“erli aqoli “) deb yuritilgan.

⁷ Tarixning ochilmagan sahifalari. II. T. “O'qituvchi”, 2010 y. 87-bet.

Erli xalqqa, o'zining butun qora meqnati bilan mustamlakachilarning yaxshi yashashi uchun xizmat qilayotgan turkistonliklarga mensimay munosabatda bo'lish Chor Rossiyasini mustamlakachilik siyosatining manfur ko'rinishi edi.

Mustamlakachilik siyosati o'lkaning manaviy qayotiga ham qattiq zarba bo'lib tushdi. Asrlar davomida xalq tamonidan yaratilgan milliy – manaviy boyliklarni yo'q qilish chorizm siyosatining eng muqim tamoni edi. Shu o'rinda chor zobitlaridan biri, qonxo'r general Skobelevning ushbu so'zlarini eslab o'tish o'rinlidir: “ Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, sanatini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi “.3

Rus qukumati esa imkoni boricha milliy til va milliy madaniyatni rivojlanishiga ongli ravishda to'sqinlik qilib, maktablar va madrasalar taminotiga mablaq ajratishni xayoliga ham keltirmasdi. Bu bilan erli xalqning faqat moddiy emas, manaviy rivojlanishiga ongli ravishda to'sqinlik qilib, maktablar va madrasalar taminotiga mablaq ajratishni xayoliga ham keltirmasdi. Erli xalq o'rtasida rus madaniyatini yoyish, xalqni o'z milliy madaniyatidan chetlashtirishga, mamlakatda ruslar tasirini oshirishga harakat qildi. Zero, Chor Rossiyasining istilochilikdan maqsadida Turkistonda o'z qucumronliklarini mustaqamlash va abadiy egalik ququqini saqlab qolish maqsadida maqalliy xalq o'rtasida ruslashtirish siyosatini yuritdi. Istilochilikning dastlabki yillaridanoq o'lkada rus tiliga davlat maqomi berildi. Bu qaqda “Jadidchilik: isloqat, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash” nomli asarda shunday malumotlar keltiriladi: Musulmon ruqoniylarga, maktablar, islomning ijtimoiy institutlariga qarshi qo'poruvchilik faoliyati kuchaytirdi, ayni vaqtda, rus – tuzem, cherkov – qavm, yakshanbalik va boshqa maktablarning, pravoslav cherkovlari, soborlar, ibodatxonalar, monastirlar va turli missiyalarning faoliyat ko'rsatishi uchun keng imkoniyat yaratib berildi. Ayrim malumotlarga ko'ra, Turkiston ginerall – gubernatorligi byudjetining faqat bir foizigina maorifga ajratilgan. Uning 74 foizi rus maktablarini, 26

foizi esa rus – tuzem maktablarini taminlashga sarflangan. O'lkadagi madrasa va masjidlar aqvoli oqir bo'lib, davlat tamonidan umuman etibor berilmagan¹. Yaxshiyamki, sharq ananalariga asoslangan maqalliy xalq vakillari tamonidan qasharlar uyushtirilib, mablaq to'planib, madrasa va masjidlar tamirlanib turilgan. Rus qukumati masjid va madrasalarni o'rta asrlar qoloqligida saqlashga harakat qilib, ularni ataylab qattiq nazorat ostida ushlab turgan. Bundan ko'zlangan maqsad, rus qukumati tub aqolining savodli, bilimli bo'lishi, dunyoviy fanlarni o'zlashtirib, ongi va tafakkuri o'sishini istamasdi, agar bunday qol ro'y bersa, xalqning milliy qis – tuyqulari kuchayishi va buning oqibatidan cho'chir edi.

Chorizmning maorif soqasidagi strategik yo'li milliy maktablarni asta – sekin tugatish edi. Xalqni savodsizlik, jaqolat va xurofot ostida saqlash orqali ularning milliy qurur va erkini buqish, qar qanday kuchlarning bosh ko'tarib chiqishini oldini olish edi. Chor mamurlari nazarida maqalliy xalq madaniyatsiz, omi, ularning ongini ko'tarish faqat rus qokimiyati tamonidan amalga oshirilishi mumkin edi. Shunday fikrga ega uluq millatchilik siyosatining ilqomchilaridan biri, Turkiston matbuot senzori N.O. Osroumov: “Rus qukumati maqalliy aqolini rus xalqi bilan aralashtirishga harakat qilishi kerak. Shu yo'nalishda maqalliy aqolining maorifini malum darajada rivojlantirish mumkin “1,- deyish bilan go'yo maqalliy xalq taqdirini o'zicha qal etgandi.

Chor qukumati madrasa va masjidlarga qarashli vaqf er – mulkini bekor qilish bilan ularning moddiy manfaatini cheklab qo'ydi. Bu ham etmaganday, madrasa va masjidlar ustidan qattiq nazorat o'rnatgan qolda diniy vazifalarga vijdonli, iymonli, sof musulmonlardan o'rniga chor qukumati siyosatini qo'llab – quvvatlovchi kimsalarni tayinlashga intildi. Din peshvolari orasidagi iymonli, sof etiqodli, qalol odamlar vazifasidan chetlashtirilib, ularning “nojo'ya” harakatlari “panturkizm“, “panislomizm“ sifatida qoralandi.

Ayrim manbalarda keltirilishicha, chor mustamlakachilari o'zlarining cheksiz qaq – ququqlar egasi ekanliklarini namoyish etish uchun masjidlarga

ham itlar bilan kirgan. Bazi manbalarda esa Toshkentning katta ko'chalarida maqalliy xalqning milliy kiyimlarda yurishi taqiqlangan. Shu va shunga o'xshash chor qukumati tomonidan maqalliy xalq madaniyatini yo'qotishga qara tilgan chora – tadbirlari, xalqning asrlar davomida ezozlab kelingan manaviy qadriyatlari soqasiga aralashishlarga urinishlari besamar ketdi. Bu urinishlar maqalliy xalqning o'z milliy madaniyati va mafkurasini saqlab qolishga, xalq, millat sifatida uyqonishiga, o'zligini va dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarni angab etishini, milliy talimni jaqon miqiyosida ro'y bergan o'zgarishlarga monand o'zgartirishga bo'lgan intilishlarini kuchaytirdi, xolos.

Xulosa qilib aytganda, hukumat tomonidan qanchalik qarshilik ko'rsatilmasin, yurt fidoyilari ajnabiylar zo'ravonligiga qarshi bosh ko'tarib, xalqni o'z ortidan ergashtirishga bo'lgan urinishlari avj olib bordi.

Xulosa

XX asrning boshlariga kelganda Turkistonda erk qoyasi, ozodlik uchun kurash jiddiy tus oldi. Chor Rossiyasining sitam, jabr – zulmi, xalq boshiga solgan adoqsiz zo'ravonliklari xalqning sabr kosasining to'lib- toshishiga olib keldi. Xalq orasidan chorizm siyosatining asl moqiyatini teran anglab etgan marifatli kishilari bu zulmga qarshi kurash olib borish uchun maydonga chiqdilar.

Bu kurash ayniqsa 1917 yilda Rossiyada bo'lib o'tgan ijtimoiy – siyosiy voqealardan so'ng yanada jonlandi. Chor qukumatinig aqdarilishi jabrdiyda xalqda ozodlikka bo'lgan umidni kuchaytirdi. Biroq “ ozodlik bayrami” sodir bo'lmadi. Jonli voqealikda markaziy qokimiyatning to'la – to'kis milliy ququqlilik to'qrisidagi rasmiy deklaratsiyasi bilan eski mustamlakachilik tartiblarini qaror toptirishga qaratilgan qaqiqiy amaliyoti o'rtasida keskin ziddiyat mavjudligi ko'zga tashlandi. Muvaqqat qukumat, chor mamuriyati singari birinchi galda imperiyaning qududiy yaxlitligini saqlab qolish, ajralib chiqishga qaratilgan urunishlarni bartaraf etish xususida Hamxo'rlik qilardi.

So'z bilan ishning to'qri kelmasligi, avvalgi mustamlakachilik yo'lining davom ettirilishi Turkistonda milliy ozodlik harakatining yangidan yuksalishiga olib keldi. Shu bilan birga, bu davrda milliy demokratlar, jadidlarning ijodiy jasorati tufayli milliy davlatchilikni tiklash qoyasi demokratik davlat qurish va jamiyatni o'zgartirishning tadrijiy rivojlanish yo'llarini izlash kontseptsiyasi bilan boyitildi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning ilm – marifatli qatlamlari chetdan tiqishtirilgan davlat tuzumining tabora yaramasligini anglagan qolda, o'z mamlakatlarini o'zlari boshqarishga qodir ekanligini borgan sari chuqurroq anglab eta boshladilar, o'z vatanlarining milliy – ozodligi va siyosiy mustaqilligi uchun kurash olib borish zarur, degan xulosaga keldilar. Ular dastlabki milliy tashkilotlar va uyushmalarning tamal toshini qo'ydilar, qarshilik ko'rsatishni umummilliy manfaatlariga javob beradigan darajaga ko'tarishga intildilar. Shunday buyuk maqsadni o'z oldiga qo'yib, mamlakat

taqdiri, kelajagi yo'lida katta jasorat bilan kurashga tushgan kuchlar – bular jadidlar edi. Ularning ezgu maqsad yo'lida olib borgan harakati ijtimoiy – siyosiy harakat sifatida tarixda jadidlar harakati, deya nom oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q.” Muloqot “jurnali, 1998 yil, 5 – son.
2. Karimov. “O’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan qurmoqdamiz”, “Turkiston”, 1999 y.
3. Karimov I.A. “Yuksak manaviyat – engilmas kuch”, T., “Manaviyat”, 2008 y.
4. “Turkiston tarixi” to’plami. T. “Ijod”, 1992 y.
5. Zaki Validiy To’qon. “Bo’linganni bo’ri er”, T. “Adolat”, 1997 y.
6. Majid Hasaniy, Islom Usmoniy. “Oydin kunlar armoni” T. “O’zbekiston”, 1997y.
7. Majid Hasaniy. “Yurt bo’ynidagi qilich yoki istilo”, T. “Adolat”, 1997 y.
8. “Xorazm tarixi” II – jild, Urganch, 1997 y.
9. Abduraqmon Nabiev. Mustaqillik uchun kurash yoxud parchalangan Turkiston tarixi. T. “Yozuvchi”, 1998 y
10. D. Ziyoev. “Turkiston milliy – ozodlik harkati”. T. G’. G’ulom nashri. 2000 y.
11. O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. T. 2000 y.
12. D. Alimova va A.A. Golovanov. O’zbekiston mustabid tuzum davrida siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari. T. “O’zbekiston”, 2000 y.
13. Q. Rajabov. M. Haydarov. Turkiston tarixi. T. “Universitet”, 2002 y.
14. N.Abduraqmonova. F. Ergashev. Turkistonda chor mustamlaka tuzumi. T. “Akademiya”, 2002 y.
15. H. Ziyoyev. “Tarixning ochilmagan saqifalari” T. “Mehnat”, 2003 y.
16. H. Ziyoyev. “Turkiston Rossiya tajovuzi va hukumronligiga qarshi kurash”. T.: “Sharq”, 2003.
17. Tarixning ochilmagan sahifalari. II. T. “O’qituvchi”, 2010 y.
18. H. Usmonov va M.Sodiqov “O’zbekiston tarixi”, 2003 y.
19. “Sharq yulduzi”, 1991 yil, 12 – son
20. “Sharq yulduzi”, 1992 y. № 7 – son.